



NAMANGAN VILOYATI YANGIQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 5-dekabr

730-6-90-Q/24

Yangiqo‘rg‘on tuman
hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 3-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sohasida xususiy sektor ishtirokini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 22-noyabrda PQ–403-son qarori ijrosi haqida” 578-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 3-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sohasida xususiy sektor ishtirokini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 22-noyabrda PQ–403-son qarori ijrosi haqida” 578-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 211-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 3-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sohasida xususiy sektor ishtirokini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 22-noyabrda PQ–403-son qarori ijrosi haqida” 578-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta’minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–403-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentabrda “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3276-son hamda 2018-yil 5-sentabrda “Maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3931-son qarorlariga muvofiq 2025-yil 1-yanvarga qadar:

nodavlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari barcha turdagi soliq (bundan ijtimoiy soliq mustasno) va yig‘imlardan;

O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxatlar bo‘yicha nodavlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini jihozlash va faoliyatini ta’minlash uchun olib kiriladigan zamonaviy o‘quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, dasturiy mahsulotlar, o‘quv va

ilmiy-metodik adabiyotlar, anjomlar va moddiy-texnik resurslar bo'jxona to'lovlaridan (bo'jxona rasmiylashtiruvi uchun yig'imlar bundan mustasno);

nodavlat maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan chet ellik o'qituvchi va mutaxassislar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy soliqdan ozod qilinganligi ma'lumot uchun qabul qilinganligi;

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining mazkur qarorning 1-bandida nazarda tutilgan imtiyozlarning amal qilish muddatini 2030-yil 1-yanvarga qadar uzaytirish to'g'risidagi takliflari ma'qullanganligi;

belgilanishicha, 2025-yil 1-yanvardan boshlab:

nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan pedagogik faoliyatni doimiy asosda amalga oshirish uchun jalb etiladigan xorijiy mutaxassislarga "A-2" o'qituvchilar kirish vizalarini berish yo'lga qo'yilishi;

davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan xorijdan jalb qilingan mutaxassislarga O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnoma berishda undiriladigan yig'im miqdori bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan bir baravarigacha kamaytirilishi;

nodavlat maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarining rahbar va pedagog xodimlari malakasini oshirishni A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, pedagogik mahorat markazlari hamda belgilangan tartibda shakllantiriladigan reyestrda kiritilgan nodavlat malaka oshirish tashkilotlarida Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirish tartibi joriy etilishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-iyuldagi "Toshkent shahrida davlat va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlik asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirish va shahar infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha huquqiy eksperimentni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-236-son qarorining 5-bandi "g" kichik bandida belgilangan to'lovlar (muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va transport infratuzilmasini yaratish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun to'lov) nodavlat maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini qurish loyihalariga tatbiq etilmasligi;

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Savdo-sanoat palatasi, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda mazkur qarorning mazmun-mohiyatini nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslar o'rtasida tushuntirish ishlarini tashkil etishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (A.Karomatov) Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (A.Qayumov), manfaatdor bo'lim va idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-403-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari E.Mexmanov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Najmiddinov